



O'ZBEK TILI PEDAGOGIK TERMINOLOGIYASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

E'tibor Yaxshiyeva
O'zJOKU o'qituvchisi,
etiboryaxshiyeva@gmail.com,

Kalit so'zlar: *pedagogika, tendensiya, terminologiya, ta'lim-tarbiya, mazmun, tamoyil, o'zbek tilshunosligi, leksik qatlam, tarbiya masalalari, dars soati, o'quv programmasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik terminologiyaning shakllanish va rivojlanish tendensiyalari, ularning ta'lim va tarbiya sohasidagi ahamiyati, sof va nisbiy terminlar xususida so'z yuritilgan.*

ТЕНДЕНЦИИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Ключевые слова: *педагогика, тенденция, терминология, образование, содержание, принцип, узбекское языкознание, лексический пласт, вопросы воспитания, учебный час, учебная программа.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются тенденции формирования и развития педагогической терминологии, их значение в сфере образования и воспитания, а также чистые и относительные термины.*

TRENDS IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL TERMINOLOGY OF THE UZBEK LANGUAGE

Keywords: *pedagogy, trend, terminology, education, content, principle, Uzbek linguistics, lexical layer, educational issues, lesson time, educational program.*

Annotasion: *This article discusses the trends in the formation and development of pedagogical terminology, their significance in the field of education and upbringing, and the use of pure and relative terms.*

Pedagogik terminologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, tamoyili, qonuniyat va bosqichlari, ustuvor shakllari, metod hamda vositalari, texnologiyalari, o'qituvchi hamda ta'lim oluvchi (o'quvchi, talaba) munosabatlari, ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash, jarayon natijalari kabilarni nazarda tutuvchi minglab terminlardan tarkib topgan. O'zbek tilshunosligi tomonidan ham o'zbek tili terminologiyasi va uning tarkibidagi xususi terminologik tizimlar yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muntazam ravishda amalga oshirib kelinmoqda.





Ma'lumki, har qanday milliy til tarkibida uning o'ziga xos ilmiy terminologiyasi ham shakllanadi. O'zbek tili leksik tizimidagi pedagogik terminosistema ham ana shu ilmiy terminologiyaga mansub alohida mikrotizimdir, uning tarkibidan mahalliy va xorijiy til terminlari barqaror o'rin egallagan bo'lishi tabiiy. Diqqat markazimizdagi terminologik tizim o'qitish jarayoni, tarbiya masalalari, ta'lim sohasining birlamchi maqsad hamda ustuvor vazifalari bilan bevosita aloqadorlik kasb etadi. "Terminologiyaning har qanday bo'limida yoki aynan o'zida shunday til birliklari mavjudki, shubhasiz ular sof terminlar bo'lishi mumkin, aksincha, ba'zi bir terminlarni termin majmuasiga kiritish murakkab, chunki ularda bir qarashda terminlik alomatlari ham ko'rinadi va aniq termin ekanligiga shubha tug'iladi. Masalan, sof terminlar: *dars soati, o'quv programmasi, institut rektori, o'quv plani, fakultet dekani* kabilar; nisbiy terminlar: *unutish, o'sish, tarbiyalash, qo'rqitish, jazolash, maqtash, eslash, ko'rsatish, suhbat, uqtirish* kabilar"⁵⁷. Ko'rinadiki, boshqa soha terminologik tizimlardagi singari sof termin va nisbiy termin masalasi ham milliy pedagogikamiz terminologiyasida o'tgan asrning oxirgi o'n yilligida kun tartibiga qo'yilgan.

O'zbek tili pedagogik terminlar tizimi soha terminologiyasining ilk tadqiqida quyidagicha tasnif qilinishiga guvoh bo'lamiz:

1. "Ta'lim nazariyasi (sistemasiga aloqador) terminlari;
2. Tarbiya nazariyasi (sistemasiga aloqador) terminlari;
3. Ta'lim-tarbiya maskanlarining nomlari;
4. Faoliyati ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan shaxs nomlari: *o'qituvchi, tarbiyachi, rahbar, yo'riqchi* (bu termin hozir eskirgan)"⁵⁸. Hozirda bu sirani *tyutor, murabbiy, fasilitator, kordinator, trener* kabi yangi terminlar bilan to'ldirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, tarbiya sistemasiga aloqador bir qator terminlar ichki guruhlar asosida tasniflangan, mazkur guruhlarda *kollektivni tashkil etish, ateistik tarbiya, ilmiy-ateistik tarbiya*; ta'lim-tarbiya muassasalarining nomlarini ifodalovchi terminlar qatorida *o'quv kabineti, pioner xonasi*⁵⁹ kabi terminlar qayd qilinadi, ushbu terminlar hozirgi pedagogik terminologiyamiz uchun eskirgan, nafaol qatlamga o'tgan deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek tili pedagogik terminologiyasining ilmiy tadqiqi doirasida qayd qilingan yuqoridagi kabi terminlar tasnifi va tavsiflaridan ham ko'rinadiki, o'tgan o'ttiz yil davrida mazkur terminologik tizimda miqdor va sifat jihatdan, ma'no ko'lamida yangilanish va eskirish holati bilan bog'liq muayyan o'zgarishlar sodir bo'lgan. Ushbu terminologik tizim tarkibi va uning birliklari o'rganilishini sohaning pedagogika, ta'lim, tarbiya, didaktika singari asosiy tushunchalarini ifodalovchi terminologik birliklar ma'nosi, ularning leksik-grammatik, leksikografik talqinlaridan boshlash maqsadga muvofiq.

⁵⁷Усмонов Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – Б. 19.

⁵⁸ Ko'rsatilgan manba. – Б. 38.

⁵⁹ Ko'rsatilgan manba. – Б. 41.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 117 b.
2. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005. – 272 б.
3. Зиёмуҳаммедов Б. Педагогика. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2006. – 112 б.
4. Иноятов У., Муслимов Н., Усмонбоева М., Иноғамова Д. Педагогика. – Тошкент, 2012. – 193 б.
5. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 384 б.
6. Majolis un-nafois. library.ziyounet.uz/
7. Маҳкамов Н. Ўзбек тили терминологиясида синонимларнинг плеонастик қўлланилиши // Ўзбек терминологиясида лексик вариантлар. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 63-79.
8. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. – 176 б.